

O`zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo`mitasi markaziy apparati xodimlari o`rtasida
O`zbekiston Respublikasi Qonunlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti
va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlarini
o`rganish soatlari to`g`risida ma`lumot

Tadbir davomida ishtirokchilarga ma`ruzachi tomonidan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 yildagi “Tadbirkorlik faoliyatini qo`llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-5718-sonli Farmoni haqida batafsil ma`lumot berdi. Ushbu Farmonda aholini tadbirkorlik faoliyatiga kengroq va faol jalb etish, yuzaga kelgan muammolarni hal etish masalalariga e`tibor qaratilgan hamda O`zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Tadbirkorlik murojaatlarini ko`rib chiqish qabulxonalarini tashkil etish taklifiga rozilik berilgan. Qabulxonalarni Vazirlar Mahkamasi tuzilmasi alohida kotibiyat sifatida, viloyatlar va tuman (shahar) larda tashkil etiladi.

Qabulxonalar tomonidan bajarilgan ishlar yuzasidan o`zidan yuqori turuvchiga va xalq deputatlari tuman kengashlariga hisobotlar berib boradilar.

Shuningdek, farmon doirasi tadbirkorlarning muammolarini hal etish maqsadida ularni qabul qilish, umumlashtirish, monitoring olib borish va nazorat qilish uchun samarali platforma joriy etilishini nazarda tutuvchi “business.gov.uz” yagona interaktiv portali faoliyat ko`rsatishini olib borishni nazarda tutadi.

Yig`ilish davomida ishtirokchilar tomonidan o`zlarini qiziqtirgan masalalar bo`yicha ma`ruzachi savollar berishdi hamda belgilangan muddatda o`tkazildi.